



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 2-son

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

5 **MUXITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**

Xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishning ayrim nazariy-huquqiy masalalari

14 **AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**

Afini demokratiyasining evolyutsiyasi va ta'siri: tarixiy-qiyosiy yondashuv

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

26 **NORMATOV BEKZOD AKRAM O'G'LI**

O'zbekistonda soliq tekshiruvi vazifalari va prinsiplari hamda qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

39 **MELIYEV XUDOYOR XURRAMOVICH**

Yuridik shaxslarning jinoiy va ma'muriy javobgarligi

45 **SAIDOV MAKSUDBEK NORBOYEVICH**

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisining vafot etishi munosabati bilan vujudga keladigan fuqarolik (korporativ) huquqiy oqibatlar

56 **MAMANAZAROV SARDOR SHUHRATOVICH**

Big Data sohasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlari: muammolar va yechimlar

67 **AKRAMOV AKMALJON ANVARJON O'G'LI**

O'zbekistonda raqamli meros va uning huquqiy muammolari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 85 ХАЛМУМИНОВ ЖУМАНАЗАР
ТАШТЕМИРОВИЧ**
Современное состояние энергетического
законодательства Республики Узбекистан и
правовые вопросы его совершенствования

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 89 КОМИЛЖОНОВ САРВАР ШУХРАТ УГЛИ**
Правовой статус и полномочия участников и
субъектов доследственной проверки

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 102 GULYAMOV SAID SAIDAXROROVICH,
ABDIXAKIMOV ISLOMBEK BAHODIR O'G'LI**
Kvant tahdidi: kvant hisoblashning xalqaro
kiberxavfsizlikka ta'sirini va yangi huquqiy
bazalarga shoshilinch ehtiyojni o'rganish

- 113 ОКЮЛОВ ОМОНБОЙ,
КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ МАМИРОВНА**
Уникальный научный консорциум
учёных, юристов, цивилистов

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.2./FWX09733>
UDC: 342.922+343.22(045)(575.1)

YURIDIK SHAXSLARNING JINOIY VA MA'MURIY JAVOBGARLIGI

Meliyev Xudoyor Xurramovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0003-9431-0172

e-mail: legaluz15@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuridik shaxslarning jinoiy va ma'muriy javobgarligi masalalari tahlil qilingan bo'lib, amaldagi qonunchilikda jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik uchun faqatgina jismoniy shaxslarning javobgarligi belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, yuridik shaxslarning boshqaruv organlari va mansabdor shaxslari tomonidan yuridik shaxsning manfaati va foydasini ko'zlab sodir qilingan huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning o'zini emas, balki bevosita ularning mansabdor shaxslarini ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortishni nazarda tutadi. Mazkur holat huquqbuzarlikning sodir etilishidan amalda manfaatdor bo'lgan shaxslarga qarshi javobgarlik choralari qo'llashga va yuridik shaxslar faoliyatida huquqbuzarliklarning oldini olishga imkon bermaydi. Shu sababli huquqbuzarlikni sodir etishda jismoniy shaxslar bilan bir qatorda, yuridik shaxslarning javobgarligini ham belgilash zaruriyati namoyon bo'lmoqda. Bu esa bir qancha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasida qo'llanib kelmoqda. Shu sababli maqolada mamlakatimizda ushbu yo'nalishni takomillashtirish lozimligi asoslangan. Bundan tashqari, maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarligi masalalariga doir bir qancha olimlarning qarashlari va xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: javobgarlik, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, xorijiy tajriba.

УГОЛОВНАЯ И АДМИНИСТРАТИВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ

Мелиев Худоёр Хуррамович,

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проанализированы вопросы уголовной и административной ответственности юридических лиц, при этом действующее законодательство устанавливает ответственность только физических лиц за преступление и административное правонарушение. Это в свою очередь предполагает привлечение к административной и уголовной ответственности не самих юридических лиц, а непосредственно их должностных лиц за правонарушения, совершённые должностными лицами органов управления юридических лиц в интересах и для выгоды юридического лица. Данное положение не позволяет применять меры ответственности к лицам, фактически заинтересованным в совершении правонарушения, и предупреждать правонарушения в деятельности юридических лиц. Поэтому необходимо установление ответственности для юридических лиц за совершение правонарушения так же, как и для физических лиц. Это нашло применение в опыте ряда развитых зарубежных стран. Поэтому в статье обосновывается необходимость совершенствования данного направления и в нашей стране. Кроме того, в статье анализируются взгляды ряда учёных на вопросы ответственности физических и юридических лиц и законодательства зарубежных стран.

Ключевые слова: ответственность, физическое лицо, юридическое лицо, административная ответственность, уголовная ответственность, зарубежный опыт.

CRIMINAL AND ADMINISTRATIVE LIABILITY OF LEGAL ENTITIES

Meliev Khudoyar Khurramovich,

Independent researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the issues of criminal and administrative responsibility of legal entities, while the current legislation defines the responsibility of only individuals for criminal and administrative offenses. This, in turn, implies administrative and criminal liability of legal entities, but not legal persons themselves, for violations committed by management bodies and officials of legal entities in favor of and for the benefit of the legal entity. This situation does not allow us to apply measures of responsibility to persons who are really interested in committing an offense and prevent violations in the activities of legal entities. For this reason, it is necessary to determine the liability of legal entities in addition to individuals for committing an offense. This is used in the experience of a number of developed foreign countries. Therefore, the article emphasizes the need to improve this direction in our country. In addition, the article analyzes the views of a number of scientists on the issues of the responsibility of physical and legal persons and the legislation of foreign countries.

Keywords: liability, physical person, legal entity, administrative liability, criminal liability, foreign experience.

Kirish

Xorijiy davlatlar jinoyat huquqiy fanlari, qonunchiligi va amaliyotida “jinoyat subyekti” tushunchasiga kengroq qaraladi. Transmilliy kompaniyalarda korrupsiyaning vujudga kelishi qonunchilik oʻzgarishlariga sabab boʻldi. Xususan, koʻpgina gʻarb mamlakatlari-da korrupsiyaviy yoʻnalishdagi jinoyatlar uchun yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi belgilandi [1].

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan huquqshunos olimlar tomonidan amalga oshirilayotgan kriminologiya fani doirasidagi tadqiqotlarda ham jinoyat subyekti tushunchasi toʻgʻrisida ilgʻor takliflar berilgan. Misol uchun, M. Sobirov [2] oʻzining doktorlik ishida yuridik shaxsning jinoiy javobgarligi masalasini koʻrib chiqish zarurati toʻgʻrisida fikr bildirgan. Amaliyotda yuridik shaxslar, xususan xorijiy yuridik kompaniyalar, investorlar, oʻz firmasi, tashkiloti nomidan mansabdor shaxslarga turli xildagi sovgʻalar, chet el safarlari uchun put-yovkalar, ziyofatlar uyushtirib berish orqali oʻzlarining gʻayriqonuniy maqsadlarini

amalga oshirishga, turli xil imtiyozlarni qoʻlga kiritishga muvaffaq boʻlish holatlari yoʻq emas. Bunday holatlarning jinoiyligini Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi normalari asosida isbotlash mumkin emas yoki qiyin kechadi.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqolada ilmiy bilishning ilmiy va mantiqiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qoʻllangan. Shu bilan birga, empirik statistik materiallar, tarixan shakllangan maʼlumotlar, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari

Umuman olganda, yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi masalasida xorijiy yuridik adabiyotlarda qarama-qarshi fikrlar mavjud. Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarlik subyekti etib belgilash tarafdorlari tomonidan quyidagi asoslar keltiriladi: yuridik shaxs nomidan ish koʻruvchi rahbarlar yoki boshqa jismoniy shaxslarni jinoiy javobgarligi odatda ularning obyektiv aybi bilan bogʻliq boʻladi, yaʼni shaxs korxonaning noqonuniy faoliyati-

ni bilsa-da, o'zining kuchi bilan ularni o'zgartira olmasligi mumkin [3]; rahbar javobgarlikka tortilsa ham yuridik shaxs noqonuniy faoliyatni davom ettiradi [4].

Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini o'rnatishga qarshilar esa aybdorning shaxsan javobgarligi prinsipini [5] va ayb hamda shaxsiy javobgarlik prinsiplarini birga qo'shib bo'lmasligini, chunki ayb shaxsning o'zining qilmishiga ruhiy munosabatidir, bu esa yuridik shaxslarda mavjud bo'lmasligini [6], shuningdek, fuqarolik va ma'muriy javobgarlikning yetarli va samarali ekanligini [7] keltirishadi.

Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi holati yuzasidan yuridik shaxsni javobgarlikka tortish masalasi bir qator xorijiy davlatlarning qonunlarida o'z aksini topgan. Xususan, deyarli barcha Yevropa mamlakatlari yuridik shaxslar jismoniy shaxslar bilan teng ravishda ma'muriy va jinoiy-huquqiy munosabatlar subyekti bo'lishi mumkin [3]. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasining "Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida"gi [8] (1987-yil) Qonunida yuridik shaxsni ma'muriy huquqbuzarlik yuzasidan javobgarlikka tortish nazarda tutilgan. Unga muvofiq, agar ma'muriy huquqbuzarlik boshqaruv organlari qaroriga binoan emas, balki o'z tashabbusi bilan ishlaydigan xodim yoki mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, o'z navbatida, bu harakatlar tashkilot uchun biron-bir imtiyoz va afzalliklarga olib kelmasa, yuridik shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilmasligi lozimligi belgilangan. Boshqacha qilib aytganda, yuridik shaxslarning javobgarligi huquqbuzarlik yuridik shaxs manfaatlarini ko'zlab sodir qilingan yoki qilinmaganligiga bog'liq. Agar yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki xodimi o'z manfaati yoxud uchinchi tomon manfaatlarini yo'lida harakat qilgan bo'lsa, yuridik shaxs javobgar hisoblanmasligi lozim. Ammo agar mazkur huquqbuzarlik sodir qilinishi orqali yuridik shaxs ma'lum bir foyda olgan bo'lsa, u holda yuridik shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin bo'ladi.

Xuddi shunday normalar bir qator MDH davlatlari qonunchiligida ham belgilab qo'yilgan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy huquqbuzarliklar kodeksining 2.1-moddasida [9] agar yuridik shaxs ushbu Kodeksda yoki Rossiya Federatsiyasining ta'sis subyektining qonunlarida ma'muriy javobgarlik ko'zda tutilgan qoidalar va normalarga rioya qilish imkoniyati mavjud bo'lib, biroq ularga rioya qilish bilan bog'liq barcha choralarni ko'rmagan bo'lsa, sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun aybdor deb topilishi belgilangan. Bundan tashqari, yuridik shaxsga ma'muriy jazo qo'llanishi aybdor shaxsni ushbu huquqbuzarlik uchun javobgarlikdan ozod qilmasligi va aksincha, shaxsni ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish ushbu huquqbuzarlik uchun yuridik shaxsni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilmasligi ham ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksning 33-moddasida [10] xususiy notariuslar, xususiy sud ijrochilari, advokatlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar ma'muriy javobgarligi belgilangan. Unga ko'ra, ular ushbu Kodeksning Maxsus qismida nazarda tutilgan hollarda ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgar bo'ladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar tashkiliy yoki ma'muriy-xo'jalik funksiyalarni bajarishga vakolatli bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkor va yuridik shaxsning xodimi yoki yuridik shaxsni boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxs tomonidan ushbu Kodeksning Maxsus qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik (harakat yoki harakatsizlik) sodir etilgan, unga ruxsat berilgan yoki tasdiqlangan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgar bo'ladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan va mustaqil soliq to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmalari (moliya institutlari bundan mustasno) yuridik shaxs sifatida ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish yakka

tartibdagi tadbirkor va yuridik shaxsning xodimini ushbu huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikdan ozod qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham yuridik shaxslarning jinoiy va ma'muriy javobgarligi institutini joriy etish maqsadga muvofiq.

Qolaversa BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 26-moddasiga [11] muvofiq har bir ishtirokchi davlat, o'zining huquqiy prinsiplarini hisobga olgan holda, mazkur konvensiyada jinoyat deb tan olingan harakatlarda ishtiroki sababli yuridik shaxslarning javobgarligini aniqlash uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi. Yuridik shaxslarning javobgarligi, ishtirokchi davlatning huquqiy prinsiplariga rioya qilish shartida, jinoiy, fuqarolik-huquqiy yoki ma'muriy bo'lishi kerak. Bunday javobgarlikning yuklatilishi jinoyat sodir etgan jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligiga zarar yetkazmaydi. Har bir ishtirokchi davlat, xususan, ushbu moddaga muvofiq javobgarlikka tortilayotgan yuridik shaxslarga nisbatan samarali, mutanosib va to'xtatuvchi ta'sirga ega bo'lgan jinoiy va jinoiy bo'lmagan choralari, shu jumladan, pullik jarimalar qo'llanishini ta'minlaydi [12].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar rejasining to'rtinchi raund natijalari bo'yicha O'zbekistonga berilgan tavsiyalarda [13] yuridik shaxslarning javobgarligini kiritish bo'yicha tavsiyasi yuzasidan sezilarli ish qilinmagani tanqid qilingan.

Yuridik shaxslarning javobgarligini joriy qilish yuridik shaxs mulkdorlarining (ishtirokchilar, aksiyadorlar) ijro organi a'zolarini (direktorlar, menejerlar va boshqalar) tayinlashda, qarorlar qabul qilishda mas'uliyatini oshirishga va boshqaruv va ijroiya organlarining faoliyati samarador-

ligini ta'minlashga hamda yuridik shaxslar tomonidan sodir etiladigan korporativ huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yuridik shaxslarning javobgarligini qonun hujjatlari-da belgilash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini quyidagi mazmundagi modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

"17¹-modda. Yuridik shaxslarning javobgarligi

Yuridik shaxs, davlat organlari bundan mustasno, agar u muayyan faoliyatni amalga oshirishda majburiyatlar yoki taqiqlarni belgilovchi qonunning to'g'ridan to'g'ri talablarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarilmaganlikda aybdor bo'lgan va quyidagi holatlarning kamida biri mavjud bo'lgan taqdirda, jinoyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan harakat uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi.

a) ushbu harakat rahbarlik funksiyalariga ega bo'lgan holda, mustaqil ravishda yoki yuridik shaxsning a'zosi sifatida uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa;

b) ushbu harakat rahbarlik funksiyalariga ega bo'lgan shaxs tomonidan yo'l qo'yilgan, ruxsat berilgan, tasdiqlangan yoki bajarilgan bo'lsa;

d) ushbu harakat rahbarlik funksiyalariga ega bo'lgan shaxs tomonidan nazorat va kontrolning yo'qligi tufayli sodir etilgan bo'lsa.

Sodir etilgan huquqbuzarlik uchun yuridik shaxsning jinoiy javobgarligi jismoniy shaxs javobgarligini istisno qilmaydi".

Shuningdek, ushbu kodeksning 43-moddasida yuridik shaxslarga nisbatan quyidagi jazo turlari va asoslari bilan to'ldirish taklif etiladi:

a) jarima;

b) muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish;

d) tugatish.

Yuridik shaxslar uchun jarima asosiy jazo sifatida qo'llanadi.

Yuridik shaxsni muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish va uni tugatish ham asosiy, ham qo'shimcha jazo choralari sifatida qo'llanadi.

Yuridik shaxslar uchun jarima miqdori sodir etilgan jinoyatning xususiyati va og'irligi hamda yetkazilgan zarar miqdorini, shuningdek, yuridik shaxsning moliyaviy-iqtisodiy holatini hisobga olgan holda bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ming baravarigacha belgilanadi. Yuridik shaxs belgilangan jarimani to'lashdan bosh tortgan hollarda, sud to'lanmagan jarima miqdorini mol-mulkni undirish bilan almashtirishi mumkin.

Yuridik shaxsning muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilinishi muayyan bitimlar tuzish, aksiyalar yoki boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarish, davlatdan subsidiyalari, imtiyozlar va boshqa kafolatlar olish yoki boshqa faoliyat turlarini amalga oshirishni taqiqlashdan iborat.

Muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish ma'lum bir hudud yoki yilning muayyan davri bilan cheklanishi mumkin va besh yilgacha yoki cheklanmagan muddatga tayinlanadi.

Yuridik shaxsni tugatish uning tugatilishi va fuqarolik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan oqibatlarni o'z ichiga oladi.

Yuridik shaxsni tugatish sud tomonidan jinoyatning og'irligi uni saqlab qolish va faoliyatini davom ettirishni imkonsiz deb topganda belgilanadi.

Ijroiya organi tomonidan sodir etilgan noqonuniy xatti-harakatlar uchun yuridik shaxsga nisbatan javobgarlikni qo'llash imkoniyati mulkdorlarning (ishtirokchilar, aksiyadorlar) korxona faoliyatida faol ishtirok etishdan manfaatdor bo'lishini ta'minlaydi, huquqbuzarliklarning oldini olishda ijro etuvchi organning rolini kuchaytiradi hamda yuridik shaxslarning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Trunsevskiy Yu.V., Kurbanov R.A., Sirin A.M. et al. Protivodeystviye korrupsii v sfere biznesa [Combating corruption in business]. Eds. T.Ya. Khabrieva, O.S. Capinus; Institute of Legislation and Comparative Law under the Government of the Russian Federation. Moscow, Yurisprudensiya Publ., 2020, p. 54.
2. Sobirov M. Iqtisodiy jinoyatchilikning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ijtimoiy-kriminologik jihatlar [Socio-criminological aspects of economic crime in market economy conditions]. PhD thesis. 2002.
3. Banchuk O.A. Pravo ob administrativnykh pravonarusheniyakh: opyt stran Zapadnoy i Vostochnoy Yevropy, trebovaniya Yevropeyskogo Suda po pravam cheloveka i standarty Soveta Yevropy [The Law of Administrative Offenses: the experience of Western and Eastern European countries, the requirements of the European Court of Human Rights and the standards of the Council of Europe]. Analytical report. Available at: <https://lprc.kz/wp-content/uploads/2020/05/Analiticheskij-doklad-%C2%ABPravo-ob-administrativnyh-pravonarusheniyah-opyt-stran-Zapadnoj-i-Vostochnoj-Evropy%C2%BB.pdf>
4. Selina S.G. Otvetstvennost' yuridicheskikh lits v projekte novogo UK Rossiyskoy Federatsii [Liability of legal entities in the draft of the new Criminal Code of the Russian Federation]. *Criminal Law: New Ideas*. Moscow, 1994, p. 52.

5. Problemy implementatsii mezhdunarodnykh norm v oblasti protivodeystviya korruptsii v rossiyskoyye zakonodatelstvo [Problems of implementation of international norms in the field of combating corruption in Russian legislation]. Coll. of materials. Eds. O.S. Kapinus, A.V. Kudashkina; Academician General Prosecutor's Office of Russia Federation. Moscow, 2011, vol. 2, p. 43.
6. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. Eds. N.I. Vetrova, Yu.I. Lyapunova. Moscow, Yurisprudensiya Publ., 2001, p. 121.
7. Ugolovnoye pravo Rossiyskoy Federatsii [Criminal law of the Russian Federation]. General part. Ed. B.V. Zdravomyslova. 2nd ed., revised and suppl. Moscow, Yurist Publ., 2002, p. 196.
8. Mikheyev R.I., Korchagin A.G., Shevchenko A.S. Ugolovnaya otvetstvennost' yuridicheskikh lits: za i protiv [Criminal liability of legal entities: pros and cons]. Vladivostok, Far Eastern University Publ., 1999, p. 16.
9. Law on Administrative Offences (OWiG). Unofficial table of contents OWiG. Date of completion: 24.05.1968. Available at: <https://www.global-regulation.com/translation/germany/388738/law-on-administrative-offences.html>
10. Code of the Russian Federation on Administrative Offenses, dated December 30, 2001, No. 195-FZ, as amended on 2024, April 6. Article 2.1. Administrative offense. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/f214c94ac8d077460330dbe4ab3d6677b3635a79/
11. Code of the Republic of Kazakhstan on Administrative Offense, as amended and supplemented as on 2019, March 2. Available at: <http://www.parliament.am/library/varchakaniravaxaxtum19/xazaxstan.pdf>
12. United Nations Convention Against Corruption. United Nations. New York, p. 21. Available at: <https://www.unodc.org/unodc/en/treaties/CAC/>
13. Antikorruptionnyye reformy v Uzbekistane [Anti-corruption reforms in Uzbekistan. 4th round of monitoring under the Istanbul Anti-Corruption Action Plan]. OECD, 2019, p. 229. Available at: https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th-Round_Monitoring-Report-2019-RUS.pdf/
14. Liability of the Legal Person (Entity). CoE/EU Eastern Partnership Programmatic Co-operation Framework (PCF). Available at: <https://rm.coe.int/16806eebf2/>
15. Leigh L.H. The Criminal Liability of Corporations and Other Groups: A Comparative View. *Michigan Law Review*, 1982, vol. 80, no. 7, pp. 1508–28. *JSTOR*. DOI: 10.2307/1288557/

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 2-SON

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 23.04.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 13,5.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 50.

TDYU tipografiyasida chop etildi.